

RANG TASVIRDA MIS SHISHA CHINNI BUYUMLAR ISHLASH TEXNIKASI

Mirzayev Elnur¹, Ergasheva Rayhon²

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti, San 'atshunoslik kafedrası
o`qituvchisi, Tasviriy san 'at va muhandislik grafikasi talabasi
e-mail:elnurmirezayev1@gmail.com*

Аnnotatsiya. Ushbu maqola orqali talabalar shisha chinni va mis buyum turlari va ularni ishlashda nimalarga ahamiyat qaratish kerakligi va qanday ranglardan foydalanish kerakligi haqida bilib olishlari mumkin.

Калит so`z va iboralar: Naturmort, akvarel, tempera, guash, kompozitsiya, shisha, chinni buyum.

Аннотация. В данной статье учащиеся узнают о типах стеклянной и медной посуды, о том, на что следует обращать внимание при работе с ними и какие цвета использовать.

Ключевые слова и фразы. Натюрморт, акварель, темпера, гуашь, композиция, стекло, фарфор

Annotation. Through this article, students can learn about the types of glassware and copperware and what to focus on when working with them and what colors to use.

Key words and phrases. still life, watercolor, tempera, gouache, composition, glass, porcelain.

Barchaga ma'lumki tasviriy san'atga oid o'quv qo'llanmalarda darsliklar va adabiyotlarda umumiy naturmort chizish haqida ma'lumot berilgan ammo uning ba'zi bir tasvirlashda qiyinchilik tug'diradigan buyumlarini aynan qanday his qilib tasvirlash qanday ranglardan foydalanish haqida aniq bir fikr bor deb ayta olmaymiz. Ushbu maqola orqali biz aynan naturmortdagi ayrim buyumlar haqida to'xtalmoqchimiz. Xozirda ko'plab talabalar va yosh rassomlar shisha mis chinni buyumlarni chizishda bir qator xato va kamchililarga yo'l qo'yadilar. Ushbu buyumlarni materialligini topishda yorug' va soyalarni qo'llashda fazoviy perspektivani aniqlashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Shishalar turlari ko'p masalan: shaffof shisha, oq shisha ,jigarrang shisha, yashil shisha va ko'k shisha. Shaffof shisha idishlarga suyuq materiallarni qadoqlash uchun ishlatiladigan shisha butilkalar misol bo'la oladi. Bundan tashqari hayotimizda uchraydigan ko'plab uy ro'zg'or buyumlari ham masalan chashka finjon choynaklar ham shisha idishlar bo'lishi mumkin. Xo'sh ularni tasvirlashni qanday amalga oshiramiz?

Shisha idishlarni dastlab qurib olamiz, rang berishda orqa planga diqqatni qaratamiz shisha shaffof bo'lganligi uchun, orqa plandagi materialni yoki fonni

o'zida mujassam etadi. U o'ziga tushayotgan yo'rug'likni sindirishi natijasida yaltiroq xususiyat vujudga keladi.

1-A rasmda shisha buyumlarni qora fonda, buyumlarga yorug'lik tushirilgan holda tasvirlangan, buyumlardan biri oq va ikkinchisi ko'k shisha va tabiiyki shisha ranglari bir biriga akslanmoqda. Shisha buyumga ikki turdagi yorug'lik tushmoqda oq va sariq xiraroq yorug'lik. Shisha buyumlarni ishlashdagi eng muhim qadam bu uning blekini yopib yubormaslik va soyalarini o'z o'rnida qo'llay bilishdir. 1-B rasmda shisha probirkalar tasvirlangan, orqa foni och ko'k bo'lganligi sabab, probirkalar ham och va to'q ko'k tularda ifodalangan, shishaga rang berishda shaffof toza ranglardan foydalanish kerak.



A)



B)

1-rasm

Mis idishlarning ham turlari ko'p. Misol uchun: qizil, kumush, tilla tusdagi mislardan yasalgan choy idish, mis ko'za, kosa, qumg'on, lagan, la'li, kabi uy-ro'zg'or buyumlari mavjud. Mis idishlarni rang bilan ishlash birmuncha mushkul, chunki mis buyumlar bir vaqtda sarg'ish yashil, tillarang qizg'ish ranglarni o'zida aks ettiradi. 2-A rasmda mis choy idish tasvirlangan. Bunda asosan uning blek soya reflekslari o'z o'rnida tasvirlangan. Reallikni kuchaytirish maqsadida choy idish ustiga och havorang tusdan chang sifatida foydalanilgan. Rasmda eng diqqatni tortadigan joy uning blegi va uning atrofidagi ranglardir. Blek shunchaki oq rangda qo'yilmagan, balki sarg'ish qizg'ish ranglar qo'yilgan bu esa uni materialligini yanada kuchaytirgan. 2-B rasmda sarg'ish tillarang mis qumg'on tasvirlangan. Qumg'onga rang berayotganimizda och soyalarini sarg'ish yashil va to'q soyalarini qilishda o'tkir zangori yashil ranglardan foydalaniladi.

2-C rasmda kumushrang mis qumg'onni ko'rishimiz mumkin. Ushbu qumg'on boshqalaridan rang qo'yishda tubdan farq qiladi. O'tkir soyalarini qilishda o'tkir malla, ko'k siyohranglardan foydalaniladi. Umuman olganda mis

idishlarning qanday rang va tusda tasvirlanishi uning qanday yorug'likda turganligiga, orqa foniga va yonidagi predmetlarga ham bog'liq.



A)



B)



C)

2-rasm

Chinni buyumlar ham yuqoridagi buyumlar kabi aks qaytaruvchi hisoblanadi. Ayniqsa, naturmorta oq rangdagi chinni buyumlarga rang berganimizda atrofdagi jamiki narsalarning rangi aks etadi. 3-rasmda chinni buyumlar ishtirok etgan naturmort tasvirlangan. Bunda chinni buyumlar oq bo'lsada, unga och havorang, och pushti, oxra sarg'ish ranglarda tasvirlangan. Bunday ranglarda tasvirlanganini sababi chinni buyumlarni atrofida pushti

gullarning rangi va buyum ostida qizg'ish jigarrang tusdagi matoning rangi akslanmoqda. Chinni buymlarning oqdan farqli boshqa ranglarida ranglar akslanganida tamomila boshqa rang hosil bo'ladi. Ko'k rangli chinniga qizg'ish rangdagi mato akslansa siyoh binafsharang aks tushadi.



3-rasm

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada shisha chinni mis buyumlarning materialligi haqida so'z yuritildi va ushbu buyumlar chizishdagi xato va kamchiliklar haqida ma'lumot berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent O'qituvchi 1984-yil.
2. Abdirasilov S. Tolipov N. Rangtasvir T. Bilim O'KMXTM, 2005-yil
3. Boymetov B. Abdirasilov S. Chizmatasvir. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, 2004.
4. Egamov X. Bo'yoqlar bilan ishlash. — Toshkent: "O'qituvchi", 1981.